

Dildora Yunus qizi Yusupova,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
e-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com
ORCID ID [ORSID 0000-0002-6163-9567](https://orcid.org/0000-0002-6163-9567)

ANNOTASIYA: *Nutqiy hodisa sifatida matn va uning qurilishini, tarkiban o'ziga xosligini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi o'zbek tilshunosligida antroposentrik tilshunoslikning bir tarmog'i bo'lgan matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvopoetika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik sohalarini shakllantirish va rivojlantirishga turtki bo'ldi. Tabiiyki, bu shaxs tili munosabatiga e'tiborni kuchaytirmoqda; til va nutq munosabatini uning egasi bilan birga idrok etish, o'rganish, tushunish, anglash, tahlilga tortish faoliyatlariga doir tushuncha va kategoriyalar bilan boyimoqda.*

Mazkur maqolada taniqli o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida undoshlarning fonopoetik vosita sifatida qo'llanilishidagi o'ziga xoslik lingvopoetik tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *poetik nutq, undoshlar, fonopoetik vosita, belgining ortiqligi, ovoz kuchining balandligi*

АЛЛИТЕРАСИЯ ЗВУКОВ В ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Дилдора Юнус кызы Юсупова,
доцент Бухарского государственного университета
кафедра узбекского языкознания и журналистики,
к.ф.н. (PhD) e-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com
ORCID ID [ORSID 0000-0002-6163-9567](https://orcid.org/0000-0002-6163-9567)

АННОТАЦИЯ: *Возросший интерес к изучению текста как речевого*

явления и его конструкции, его содержательной уникальности является толчком к становлению и развитию лингвистики текста, прагмалингвистики, лингвопоэтики, психолингвистики, когнитивной лингвистики, которая является разделом антропоцентрической лингвистики в Узбекское языкознание было. Естественно, это повышает внимание к родству языка человека; он обогащается понятиями и категориями, связанными с деятельностью по восприятию, обучению, пониманию, пониманию и анализу взаимоотношений языка и речи совместно с ее обладателем.

В данной статье к лингвопоэтическому анализу доводится особенность употребления согласных как фонопоэтического средства в стихотворениях известной узбекской поэтессы Халимы Худойбердиевой.

Ключевые слова: поэтическая речь, согласные, фонопоэтические средства, избыточность знака, громкость

ALLITERATION OF SOUND IN POETIC SPEECH

Dildora Yunus kyzy Yusupova,

Associate Professor at Bukhara State University

Department of Uzbek linguistics and journalism,

f.f.f.d. (PhD) e-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com

ORCID ID [ORSID 0000-0002-6163-9567](https://orcid.org/0000-0002-6163-9567)

ANNOTATION: *The increased interest in the study of the text as a speech phenomenon and its construction, its meaningful uniqueness is the impetus for the formation and development of text linguistics, pragmalinguistics, linguopoetics, psycholinguistics, cognitive linguistics, which is a section of anthropocentric linguistics in Uzbek linguistics. Naturally, this increases attention to the relatedness of a person's language; it is enriched with concepts and categories associated with the activities of perception, learning, comprehension,*

comprehension and analysis of the relationship between language and speech together with its owner.

This article brings to the linguapoetic analysis the peculiarity of the use of consonants as a phonopoietic device in the poems of the famous Uzbek poetess Halima Khudoiberdieva.

Key words: *poetic speech, consonants, phonopoietic means, sign redundancy, loudness*

She'riy nutqda undoshlarni birdan ortiq yozish uchun ikki sababni ko'rsatish mumkin:

1) so'z tarkibida uning asl orfografiyasiga ko'ra, qo'shaloq undosh ishlatilgan bo'lishi (masalan, *katta, balli, xuddi, jizza* kabi) va

2) muayyan nutqiy vaziyatda emotsional-ekspressiv talab taqozosiga ko'ra so'z tarkibidagi undoshni ataylab qavatlab ishlatish. Odatda, ijodkorlar so'zlovchi (muallif)ning ichki ruhiyati (*xursandlik, siqilish, ichikish, ko'ngil to'lishi, g'azablanish, kuchli nafrat* va h.) hamda asarda aytmoqchi bo'lgan badiiy-g'oyaviy maqsadini o'quvchi, kitobxonga batafsil etkazish uchun mazkur fonopoetik usuldan foydalanishadiki, bu juda nozik holat bo'lib yozuvchi yoki shoirdan katta mahoratni, til sezgirligini talab etadi.

Inchunun, ijod ahli harakat-holatning nutq vaziyatida uzoq davom etishi, takrorlanishi yoki bir zumda (tez) ro'y berishi, biror belgining me'yordan ortiqqligi, shuningdek, tovush kuchining baland yoki pastligi kabi ma'nolarni yuzaga chiqarishda undosh tovushlar(yozuvda harflar)ni birdan ortiq yozish usulidan unumli foydalanishadi. Ammo shoira Halima Xudoyberdiyeva undoshlarni majburan qavatlamaydi. Grammatik talablarga mos qavatlangan undoshlardan mahorat bilan foydalanishga harakat qiladi. Masalan,

belgining ortiqqligi:

Menga tanish ikki odam so'zlashar xoli,

Yo'qqa o'xshar bir-biridan yashirin siri.

Biri jannat bog'larining xushbo'y shamoli,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hatto do'zax oloviga pand berar biri. ("Bir qirg'oqda" she'ridan)

She'r misralaridagi ikki, yo'qqa, jannat, hatto so'zlari she'r ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Chunki, shoira qofiya talabiga ko'ra *jannat* so'zi o'rnida *rizvon*, yo'qqa o'xshar o'rnida yo'q ularning shakllarini qo'llashi mumkin edi, ammo bunday holatda mazmun butunligi saqlansa-da, she'rning ta'sirchanlik kuchi pasayar edi.

...Endi erir tog'lar qori,

Bizning bog'lar gullamas.

Soching oppoq oqararu

Birov sevib, silamas... ("Ro'molcha" she'ridan)

Harakatning davomiyligi:

Yo'q hamma ham bir emas, minglarcha mard, pok yurak,

Ammo bugunning ishi – keskin har qalbga kirmoh.

Razil bitta bo'lsa ham alafday urmoq kerak,

Loqayd bitta bo'lsa ham bir xas kabi supurmoq.

Yo'qsa, kapalakmijoz ishq dod bo'lib yashaysiz,

Yo'qsa, Ona tarixga isnod bo'lib yashaysiz. ("E'tiqod" she'ridan)

Harakatning oniyligi:

Hozir bu yurak taqqa to'xtaydi...

Shartta xotiradan kechib bo'lmaydi...

Shunda meni ul ummonga

Qaytarkansan topshirib;

Ikkov yashagan makonga,

Qandoq kelasan kirib?

Qay tarz eshik itarasan,

Qaltiramay befaryod?

Qadding qandoq ko'tarasan,

Ko'kragingdan bossa dod! ("Ro'molcha" she'ridan)

Shoiraning ko'zlarida hamisha hayrat bor, tafakkuri hamisha tahlilda, mushohadada. Ulug'larning har bir so'zi uni to'lqinlantiradi, obrazlar harakati uni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ta'sirlantiradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida: "Otabekning Zaynabga aytgan "taloq" so'zini eshitib, jon talvasasida yotgan Kumush "yarq" ko'zini ochdi... va qayta yumdi" degan o'rinni Halima Xudoyberdiyeva o'z tuyg'ularida shunday ifodalaydi:

*Uzun qabohat kuli yuldi sarv-u sumanni,
Zaharga qo'shib qordi otash shirinsuxanni.
Kelgan joyi shu bo'ldi ishq deb yo'lga chiqqanning,
Kumush, ko'zlaring qayta yumilmasa bo'lmasmi,
Shunday sarv **tuproqqa** ko'milmasa bo'lmasmi?!*

("Kumushning o'limi" she'ridan)

Yuqorida sanab o'tilgan oniy (bir soniyalik) holatlarning ta'sirchan ifodasini *sarvu sumanni, shirinsuxanni, chiqqanning, tuproqqa* kabi birliklar tarkibidagi **n, q** undoshlarining qo'shaloq holda ishlatilishi ta'minlay olgan.

Ovoz kuchining balandligi:

Ohhh!

*Bu urush... tina boshlar qaytadan ko'zim oldi,
Yongan o'tinmas, odamning kuli tushib ko'ngilga.
Tasavvur qil, bir yosh yigit gulga aylanib qoldi,
Biz bir tirik jondan ayru, ega bo'ldik bir gulga.*

("To'ra qo'rg'onda")

she'ridan)

Misralarni oddiy bir kitobxon sifatida o'qir ekanmiz, shoira chekkan oh bizga ham "yuqadi". Bu shunchaki *oh* emas, bu – *ohhh!* Nolakor oh ich-ichimizdan chiqqan xo'rsiniqqa aylanib cho'kib ketaveradi go'yo. Demak, shoira "yuqtirgan" dard – she'rdagi mazmun xayolimizni o'ziga bog'lab oladi.

Ovoz kuchining pastligi:

*Jimmm... To'ra qo'rg'on tumanida mingta qizil gul yotar –
Mingta shunqor yigit ramzi, ko'ngil faryod solma, bas,
Oppoq-oppoq tonglar otar, qirmiz-qirmiz kun botar,
Bul yigitlar qattiq uxlar, Zuhrolarin eslamas...*

Ich-ichimizga xo‘rsiniq bo‘lib cho‘kayotgan nolakor oh To‘ra‘o‘rg‘ondan Afg‘on urushiga ketib, jasadlari (balki ruslarning ichi bo‘sh temirqutilaridir) qaytgan navjuvon yigitlarning qabri tepasida endi yurak sanchig‘iga aylanadi. Zero, qabristonda ovozni ko‘tarib bo‘lmaydi: *jimmm...* Ha, misra boshida kelgan *jimmm* – lirik qahramonning qalb ingrog‘i, so‘ngsiz armoni tasviri, o‘lim qarshisida insonning imkonsizligi ifodasi. O‘lim haq. Nega buni aqlan tushungan inson (lirik qahramon) unga ko‘nmaydi?! Chunki To‘ra‘o‘rg‘ondan Afg‘on urushiga ketib, shahid bo‘lgan yigitlar qora niyatli urushocharlarning nafsi qurbonlariga aylangan. Bunga chidab bo‘ladimi?! Qizil urush ochadi Qoraga. Jangga solinadi o‘zbekning o‘g‘lonlari... Mana shoiraning ichki ingrog‘i sababi nimada...

So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish. Og‘zaki nutqda muayyan nutqiy vaziyat yoki turli sabablar (masalan, bolaga bola tilida so‘zlash uchun, talaffuz a‘zolarida nuqson borligi uchun, boshqa millatga mansubligi va h.) bois ayrim birliklarni, jumladan, o‘zlashma so‘zlar orfoepiyasida buzilishlar ro‘y berishini aksariyatimiz kuzatganmiz. Aslida, so‘zni noto‘g‘ri talaffuz qilish nutq madaniyatiga zid. Bunday xatoni so‘zlovchining o‘zlashgan so‘z orfoepiyasiga befarqligi yoki uning boshqa millat vakili ekanligi, so‘z ma‘nosini farqlamaslik natijasida paronimlikka yo‘l qo‘yishi, deb izohlashimiz mumkin. Ijodkorlar poetik nutqda nutq madaniyatiga zid hodisadan lirik qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og‘zaki – jonli tabiiy nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalanadi va so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish holatini ijobiylikka bo‘ysundiradi. (Ayrim o‘rinlarda kulgi qo‘zg‘atish yoki nutq egasining yoshi, jinsi, yashash o‘rni, nutqiy vaziyatdagi holatini ko‘rsatish maqsadida ham so‘zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o‘sha tarzda yoziladi.) Masalan, *xotira* – *xotir*, *qayergacha* – *qaygacha*, *qanday* – *qandoq*, *gapirib* – *sannab* kabi:

Eslasang... xotirga quyunlar ketgay,

Eslasang, qorayar ko‘zlaring oldi.

Qiyg‘oc bog‘lar ketib shamolga betkay,

O‘rnida yap-yaydoq dalalar qoldi...

So ‘z tashib, so ‘z tashib xuddi bolari,

*Biz **qaygacha** borsak, so ‘z-la boramiz.*

Siyrak tortib qolsa so ‘z dalalari,

*Uni bolalarga **qandoq** beramiz? (“Muammo” she’ridan)*

***Qandoq** unutaman, unutay qanday,*

Ayniqsa, ko ‘rganda bu –jang boshini.

Majnuntol bukilib sadr tushganday

***Sannab** yo ‘qlayversa to ‘kib yoshini,*

Opam, singlim degil majnuntollarni!

(“Mening so‘nggi tunim bo‘ldi” she’ridan)

Agar shoira “Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar” she’rida **bo‘pti** shaklini *bo‘libdi*, **ko‘pdi** shaklini *ko‘pni* tarzida bersa, she’rning ta’sirchanligi bu darajaga etmas edi:

*Endi deganlarida “qarchigay yigit **bo‘pti**”,*

Asta egilib qizni yo o‘pmadi yo o‘pdi.

*Ammo uchib ketdilar lochini bo‘lib **ko‘pdi**,*

Ammo yurt qon qaqshadi, yurtda qiyomat qo‘pdi,

Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar.

(“Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar” she’ridan)

Yoki “Eng toza meva” she’rida *zurriyot* so‘zi *zuryod* shaklida qo‘llanilgan:

*Mevam, qaysi bog‘da bunyod bo‘lding sen, Qay noshud bog‘bon u – mevasin otgan. Qay bir qondan bino, **zuryod** bo‘lding sen, Onam deb har kimga jovdirab yotgan.*

Shoira ijtimoiy hayotdagi hech bir voqelikka befarq emas. Tug‘ib tashlab ketilgan bolani perifrazalab “eng toza meva” deb unga achinadi. Norasidaning ota-onasidan qahrilanadi: ota bo‘lmishni “*mevasin(i) otgan noshud bog‘bon*” deya ataydi; farzandini “*onam deb har kimga jovdirab yotgan*”, “*tug‘iliboq baxtsizlik tamg‘asi peshonasiga bosilgan go‘dak*”ka aylantirgan ona bo‘lmishdan

nafratlanadi, ularning bu mudhish xatoni tuzatishlarini istaydi. Va yana bu holatga bevosita aralasha olmaganidan kuyinadi.

Alliteratsiya. Poetik nutq ohangdorligi va estetik ta'sirchanligini ta'minlashda o'rni beqiyos bo'lgan badiiy vosita turlaridan biri hisoblanadi. She'r misralari, misralar tarkibini tashkil etuvchi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil unli yoki undoshning takror qo'llanilishiga va shu asosda tovushlar musiqiylikini yuzaga keltirish alliteratsiya orqali amalga oshiriladi

Nasrda alliteratsiyadan foydalanish badiiy effekt berishi qiyin, fikrimizcha. "Shuning uchun nasrda kamdan kam hollardagina alliteratsiyani kuzatish mumkin bo'ladi" [2].

Biroq alliteratsiya nazmning joni, tomirida oqqan qoniki, shu bois u poetik nutqda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiruvchi holat hisoblanadi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida sof (to'liq) alliteratsiyadan foydalanilgan o'rinlar deyarli uchramaydi. Ammo qisman alliteratsiyali o'rinlar mavjud. Masalan,

o unlisi alliteratsiyasi:

Omon-omon qo'shiqlardan ayt,

Otam-onam tushsin yodimga.

Qamchin urib kelmoqda otam,

Otin surib kelmoqda otam.

Odil daroz bor edi bir choq,

Otaginam sirdoshi edi...

Aytaversam jonga tushar o't,

Omon-omon qo'shiqlardan ayt.

("Ayt" she'ridan)

b undoshi alliteratsiyasi:

Baxt keladi bizlarni izlab,

Boqamiz biz beparvo, loqayd.

Kunlar o'tar, u mumkin bo'zlab

Tashlab ketar bizlarni bir payt.

So 'ngra baxtni biz qidiramiz,

Yolvoramiz, "baxt, qaydasan, ayt".

U-chi bizga kinoyaomuz

Nigoh tashlar yiroqdan, loqayd.

("Baxt keladi" she'ridan)

Bilmadim, men seni sevgan lahzadan,

Boshimga ne baxtu balolar tushdi.

Hech kimga bo'y bermay, bermadim men tan,

Garchand she'ringa qon, lolalar tushdi.

("Uchinchi do'st" she'ridan)

s undoshi alliteratsiyasi:

So 'zlamog'im kerak men Sizni,

Sizlamog'im kerak men Sizni.

Qay bog'larda yozarkansiz barg,

Izlamog'im kerak men Sizni.

Sinsin Sizni kuylamasa nay,

Yoningizda suvday to'kilay...

("Suyanch tog'larim" she'ridan)

Shoira she'riyatidan bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Assonans "poetik nutqda intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsionallik, ekspressivlikni ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan fonetik usullardan biri assonans sanaladi. Soha adabiyotlarida assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladigan ohangdoshlik ekanligi qayd etiladi. (Unlilarning takrorlanishini, odatda, xalq maqollarida ko'proq kuzatamiz: ***O'zing o'yda bo'lsang ham, o'ying uyingda bo'lsin*** kabi)" [1].

Assonans she'riy matn tarkibida, ko'pincha, qofiyadosh so'zlar tarkibida kelib, she'riy nutqqa ko'tarinki ruh va o'ziga xos musiqiylik baxsh etadi. Chunonchi,

a hamda o harflari assonans hosil qiladi:

Avval-oxir shoirni o'tda ko'rdim, momojon,

Azal shoir dardini katta ko'rdim, momojon.! ("Bu o't..." she'ridan)

o' hamda u harflari assonans hosil qilishi mumkin:

*Hayhot, boshda o'q yomg'iri, botib qonli kechuvga,
Sherigini o'qdan to'sib o'zi o'qqa uchgan jon –
Ruhi bugun duch kelarkan goho yuragi quvga,
Nechun tuproq o't olmaydi, erga qulamas osmon –
Jangdagilar yovlashganlar yurt bilan jon talashib,
Biz goh nega yovlashamiz mansabu shon talashib!*

(“Ittifoq” she'ridan)

Bu kabi misollar shoira she'riyatida ko'plab uchraydi.

Geminatsiya poetik nutqda keng qo'llaniluvchi fonetik usullardan biri hisoblanadi. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati”da mazkur hodisa “qo'sh undoshlik–ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi” tarzida izohlanadi [3]. “O'zbek tilining tarixiy fonetikasi” o'quv qo'llanmasida esa bu hodisa “qo'shoqlanish” yoki “ikkilangan undosh” deb yuritilishini kuzatishimiz mumkin. M.Yo'ldoshev shunday yozadi: “Qo'shoqlanish – undoshlarning cho'zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o'zgarishlar sirasida ko'rib chiqish o'ta shartlidir. Lekin bu hodisani faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo'la olishi bilan fonetik o'zgarishlarga o'xshaydi. Qo'shoqlanish, asosan, ikki unli orasida **kelgan k, q, t, l** tovushlarida va faqat 2, 7, 8, 9, 30, 50 sanoq sonlarini nomlashda sodir bo'ladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin bo'lgan. Sanoq sonlar nomidagi bir xil qo'shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin *katta, latta, yalla, chakki, ukki* kabi so'zlardagi ikkinchi *t, l, k* lar tarixan morfologik ko'rsatkich bo'lib, ulardagi qo'shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikrlar ham fanda mavjud” [1]. Olim Adham Abdullaev esa bu borada “undoshlarni qavatlash” atamasini ishlatgan.

Undoshlarni qavatlab qo'llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan,

Balli, ko'zlarimdan dardimni uqding,

Ammo ko'zlarimga kelmagil kirib.

Dardimni qo'ymoqqa boshqa joy yo'qdir,

Ko'zimga qo'yaman yashirib. ("Ko'z" she'ridan)

yoki

Sen tog'ga qilganing bilan arzi-dod

Tog' – tog'-da, sir bermay turgani turgan.

Cho'qqidan kutmagil biror-bir imdod,

Egilgan cho'qqini aytgil, kim ko'rgan? ("Menga ayt" she'ridan)

Halima Xudoyberdiyeva she'rlariga samimiy insoniy tuyg'u va fazilatlar – sevgi va sadoqat, mehr va muruvvat o'ziga xos tarannum etiladi:

Hayot abadiy deb gullar teraman,

Quchasan, o'zim ham gullayveraman,

Bu ne chanqoqlikdir, cho'layveraman,

Sen menga ishq jomin tutganda, jonim. ("Jonim" she'ridan)

Keltirilgan keyingi misoldagi takrorlar tarkibida undoshlarning qavatlanishi (*gullar, gullayveraman, cho'layveraman*) lirik qahramon tabiatidagi (sevish, sevilish bilan bog'liq) sub'ektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ishq-sevgi haqidagi mashhur: "Muhabbat sho'r suvga o'xshaydi, uni ichganing sari chanqayverasan" iborasini shoira mutlaqo yangicha shaklda ("*Bu ne chanqoqlikdir, cho'layveraman*") ifoda etadi.

Demak, badiiy nutqda undosh tovushlarning qavatlanishi – o'ziga xos uslubiy vosita. Ta'kidlash joizki, duch kelgan unli yoki undoshni qavatlab qo'llash mumkin bo'lmagani singari so'zda muayyan sabablar bois yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyat kasb etavermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ёлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–Т.: Фан, 2007.–125 б.– 31-б.
2. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995.–88 б. – 49-б.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.–Т.: ЎзМЭ, 2002.

4. Yusupov Dildora Yunus qizi. Shoir soʻz aytgani kelar dunyoga...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yoʻliga chizgilar). «Сўз санъати» халқаро журнали. –2021, 1-сон, 4-жилд. –В.: 21-28.
<https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/377>
5. Yuldasheva D.N., Yusupova D.Y. The value of silence in speech communication// XVI International Scientific-Practical Conference “Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology” (IPFA 2024). – E3S Web of Conferences 538, 05030 (2024).–14 June 2024. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2024/68/e3sconf_ipfa2024_05030/e3sconf_ipfa2024_05030.html
6. Yuldasheva D.N. Silence is an expression of inner speech// AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (ISSN (E): 2993-2769). – Volume 01, Issue 10, 2023.–230-234.
7. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
8. Yuldasheva D. Professionalnie frazeologiya (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandirma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>
9. Yuldasheva D. Nutqiy mulqotda sukutning oʻrni. Obrazovanie i innovacionnye issledovaniya. Tom 1 № 1 (2020). <http://interscience.uz/index.php/home>
10. Yuldasheva D.N. Silence is an expression of inner speech// AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (ISSN (E): 2993-2769). – Volume 01, Issue 10, 2023.–P. 230-234.
<http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1922>
11. Yuldasheva D.N. Из истории изучения феномена тишины// Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. Date: 11th December, 2023. (ISSN: 2835-5733). 21-26-p.
<https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/3086>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

12. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. American Journal of Research, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95.

https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf

13. Yusupova D. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241.

<http://oaji.net/articles/2021/679-1612639322.pdf>

14. Dildora Yunus kizi Yusupova. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389.

<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/367>